**XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 27-dekabr VII-04-021-9-128-K/24 Sirdaryo tumani

**2025-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash hamda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24, 25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga muvofiq, Sirdaryo viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025-yil 27-dekabrdagi 01/38/1196-sonli xati va Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-5-039-9-0-K/24-sonli qaroriga asosan 2025-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash tuman mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida xalq deputatlari Sirdaryo tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tumanning asosiy iqtisodiy prognozi ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2. 2025-yil uchun tuman budjetining zahira jamg‘armasi hajmi 880 907,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

3. Tuman budjetining 2025-yil uchun zahira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

4. Tuman budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda tuman budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan

to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Soliqlarning quyidagi turlari tuman va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, tuman va shaharlar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Soliqlarning quyidagi turlari viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

Soliqlar Sirdaryo viloyati budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi:

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining 30 foizi o‘tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qonunning 12-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda undiriladigan quyidagi daromadlar viloyat budjetida to‘liq qoldirilsin (Hukumat qarorlari bilan alohida tegishli budjetlarga taqsimlangan daromadlar bundan mustasno):

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

6. Qonunning 12-moddasiga asosan tuman budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida ayrim soliqlardan ajratma me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shahar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Sirdaryo viloyati bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashlari tumaning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovlarining eng kam stavkalarga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 5-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Tuman bo‘yicha belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari 1015154,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin.

12. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

13. Tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

14. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

15. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Madaminov), xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi mahalliy budjetni shakllantirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (J.Sanginov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XATAMOV
MUSURMANKUL
ABDUMANNONOVICH

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Sirdaryo tumanining 2025-yil uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari**

| № | Ko'rsatkichlar | 2025-yilga prognozi |
|---|---|---|
| 1. | Sanoat maxsulotlari o'sish, mlrd so'mda | 4624,7 |
| | *Sanoat maxsulotlari o'sish sur'ati, foizda* | *106,5* |
| 2. | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish, mlrd so'mda | 2228,4 |
| | *Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda* | *103,8* |
| 3. | Bozor xizmatlari o'sish, mlrd so'mda | 1212,4 |
| | *Bozor xizmatlari o'sish sur'ati, foizda* | *114,6* |
| 4. | Qurilish ishlari o'sish sur'ati, mlrd so'mda | 780 |
| | *Qurilish ishlari o'sish sur'ati, foizda* | *108,2* |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari**

ming so'mda

| **Daromad turlari** | | **Summa ming so'm** |
|---|---|---|
| 1 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 26 016 640 |
| 2 | Aylanmadan soliq | 12 701 000 |
| 3 | Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i | 2 117 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i | 12 511 426 |
| 5 | Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda | 915 000 |
| 6 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 5 493 330 |
| 7 | Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari | 213 000 |
| 8 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 12 544 000 |
| 9 | Yuridik shaxslar yer solig'i | 21 280 859 |
| 10 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 8 459 000 |
| **JAMI** | | **102 251 255** |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**2025-yil uchun Sirdaryo tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlari**

ming so'mda

| № | Ko'rsatkichlar | miqdori |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar miqdori, Jami** | **102 251 255** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | **87 489 537** |
| | Zahira jamg'armasi | **880 907** |
| | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | **12 570 416** |
| | "Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari | **1 310 395** |
| **1.** | **Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi** | **25 372 490** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 25 372 490 |
| | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari | 11 589 558 |
| | Umumiy o'rta ta'lim maktablari saqlash xarajatlari | 5 325 193 |
| | Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi saqlash xarajatlari | 3 992 940 |
| | Barkamol avlod bolalar markazini saqlash xarajatlari | 1 876 758 |
| | Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun (Open budjet) | 2 588 041 |
| **2.** | **Madaniyat bo'limi** | **9 403 650** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | **9 403 650** |
| | Madaniyat bo'limi (Apparat) | 153 027 |
| | Madaniyat markazlari (Madaniyat uylari) | 912 956 |
| | Madaniyat markazlari (Ansambllar) | 413 071 |
| | Musiqa va sa'nat maktablari | 7 924 596 |
| **3.** | **Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi** | **4 476 879** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 476 879 |
| **4.** | **Tuman sport bo'limi** | **8 870 975** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 870 975 |
| **5.** | **Tuman hokimligi** | **8 748 218** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 748 218 |

| | | |
|---|---|---|
| | Tuman hokimligini saqlash xarajatlari | 3 297 695 |
| | Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari | 140 511 |
| | Hokim yordamchilarini saqlash xarajatlari | 4 337 398 |
| | Ijtimoiy ko'nikma markazi | 165 242 |
| | Axborot kutubxona markazi | 511 944 |
| | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» | 19 439 |
| | Xalq Deputatlari tuman Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari | 275 989 |
| | Hokimlikning zahira jamg'armasi | 880 907 |
| | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | 12 570 416 |
| | "Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari | 1 310 395 |
| **6.** | **Tuman hokimligi (Obodonlashtirish boshqarmasi)** | **18 033 943** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 18 033 943 |
| | Obodonlashtiri boshqarmasini saqlash xarajatlari | 14 033 943 |
| | Ichki xo'jalik avtomabil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari | 4 000 000 |
| **7.** | **Qishloq xo'jaligi bo'limi** | **4 214 927** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 214 927 |
| | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlarini saqlash xarajatlari | 2 727 038 |
| | Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xafsizligi davlat markazini saqlash xarajatlari | 623 428 |
| | Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari | 864 461 |
| **8.** | **Suv yetkazib berish xizmati davlat muossasasi** | **2 311 350** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 311 350 |
| **9.** | **Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi** | **2 179 870** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 179 870 |
| **10.** | **Oila va xotin qizlar bo'limini saqlash xarajatlari** | **1 740 942** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 740 942 |
| **11.** | **Kambag'allikni qisqartirish va bandlikga ko'maklashish bo'limi** | **2 136 293** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 136 293 |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
4-ilova

## 2025-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

**foiz hisobida**

| № | Hududlar nomi | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | | | | Foyda solig'i | | | | alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) | | | | pivo | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | |
| | | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB |
| 1 | Sirdaryo tumani | 0% | 32% | 100 % | 68% | 0% | 0% | 100 % | 100 % | 0% | 0% | 30% | 30% | 0% | 0% | 100% | 100% |

**foiz hisobida**

| № | Hududlar nomi | benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i | | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i | | Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB |
| 1 | Sirdaryo tumani | 0% | 0% | 100 % | 100 % | 0% | 100 % | 100 % | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 100% | 100% | 0% | 0% |

**foiz hisobida**

| № | Hududlar nomi | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | | | | Davlat ulushi bo'yicha dividendlar | | | | Aylanmadan soliq | | Davlat boji | | Jarima | | Yig'imlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | | Viloyatning viloyat budjetiga | | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga | Tuman (shahar)lar budjetiga | Viloyatning viloyat budjetiga |
| | | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | MRI | DSB | | | | | | | | |
| 1 | Sirdaryo tumani | 100 % | 100 % | 0% | 0% | 0% | 0% | 100 % | 100 % | 100% | 0% | 0% | 100% | 0% | 100% | 0% | 100% |

*Izoh: 1. Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan mablag'lar, ko'chma savdo obektini auksion savdolari orqali o'tkazilishidan olingan pul mablaglari to'liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladi;*

*2. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari, tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini sotishdan tushgan tushumlar, tadbirkorlik subyektlariga maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari o'rnatiladigan joylarni sotishdan tushgan mablag'lar tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.*

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar**

**ming so'mda**

| T/r | Hudud nomi | Koeffisient (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig'i stavkasi 2024-yil uchun (1 gektar uchun) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 0,90 | 37 422 |
| 2 | Adolat MFY | 1,00 | 41 580 |
| 3 | Axillik MFY | 0,90 | 37 422 |
| 4 | Baxmal MFY | 0,90 | 37 422 |
| 5 | Baxor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 6 | Beshbuloq MFY | 0,90 | 37 422 |
| 7 | Bunyodkor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 8 | Dexqonobod MFY | 0,90 | 37 422 |
| 9 | Do'stlik MFY | 1,00 | 41 580 |
| 10 | Yoshlik MFY | 1,00 | 41 580 |
| 11 | Zarshunos MFY | 0,90 | 37 422 |
| 12 | Ziyokor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 13 | Ilg'or MFY | 0,90 | 37 422 |
| 14 | Intilish MFY | 0,90 | 37 422 |
| 15 | Islomobod MFY | 1,00 | 41 580 |
| 16 | Istiqbol MFY | 0,90 | 37 422 |
| 17 | Ishonch MFY | 1,00 | 41 580 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 18 | Kamolot MFY | 0,90 | 37 422 |
| 19 | Quyosh MFY | 0,90 | 37 422 |
| 20 | Matonat MFY | 1,00 | 41 580 |
| 21 | Navro'z MFY | 1,00 | 41 580 |
| 22 | Oq yo'l MFY | 0,90 | 37 422 |
| 23 | Oqibat MFY | 1,00 | 41 580 |
| 24 | Orzu MFY | 0,90 | 37 422 |
| 25 | Paxtakor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 26 | Tadbirkor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 27 | Taraqqiyot MFY | 0,80 | 33 264 |
| 28 | Tinchlik MFY | 1,00 | 41 580 |
| 29 | Turkiston MFY | 0,90 | 37 422 |
| 30 | Ulug'bek MFY | 1,00 | 41 580 |
| 31 | Farovon MFY | 1,00 | 41 580 |
| 32 | Furqat MFY | 1,00 | 41 580 |
| 33 | Xazina MFY | 1,00 | 41 580 |
| 34 | Hikmatli MFY | 0,80 | 33 264 |
| 35 | Shirin MFY | 1,00 | 41 580 |
| 36 | Sholikor MFY | 1,00 | 41 580 |
| 37 | Elobod MFY | 0,90 | 37 422 |
| 38 | Yangiobod MFY | 0,90 | 37 422 |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha (dexqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

**so'mda**

| T/r | Hudud nomi | Koeffisient (0,7 dan 3 gacha) | Yer solig'i stavkasi 2025 -yil uchun (1 kv uchun) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 0,90 | 375,30 |
| 2 | Adolat MFY | 1,00 | 417,00 |
| 3 | Axillik MFY | 0,90 | 375,30 |
| 4 | Baxmal MFY | 0,90 | 375,30 |
| 5 | Baxor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 6 | Beshbuloq MFY | 0,90 | 375,30 |
| 7 | Bunyodkor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 8 | Dexqonobod MFY | 0,90 | 375,30 |
| 9 | Do'stlik MFY | 1,00 | 417,00 |
| 10 | Yoshlik MFY | 1,00 | 417,00 |
| 11 | Zarshunos MFY | 0,90 | 375,30 |
| 12 | Ziyokor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 13 | Ilg'or MFY | 0,90 | 375,30 |
| 14 | Intilish MFY | 0,90 | 375,30 |
| 15 | Islomobod MFY | 1,00 | 417,00 |
| 16 | Istiqbol MFY | 0,90 | 375,30 |
| 17 | Ishonch MFY | 1,00 | 417,00 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 18 | Kamolot MFY | 0,90 | 375,30 |
| 19 | Quyosh MFY | 0,90 | 375,30 |
| 20 | Matonat MFY | 1,00 | 417,00 |
| 21 | Navro'z MFY | 1,00 | 417,00 |
| 22 | Oq yo'l MFY | 0,90 | 375,30 |
| 23 | Oqibat MFY | 1,00 | 417,00 |
| 24 | Orzu MFY | 0,90 | 375,30 |
| 25 | Paxtakor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 26 | Tadbirkor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 27 | Taraqqiyot MFY | 0,80 | 333,60 |
| 28 | Tinchlik MFY | 1,00 | 417,00 |
| 29 | Turkiston MFY | 0,90 | 375,30 |
| 30 | Ulug'bek MFY | 1,00 | 417,00 |
| 31 | Farovon MFY | 1,00 | 417,00 |
| 32 | Furqat MFY | 1,00 | 417,00 |
| 33 | Xazina MFY | 1,00 | 417,00 |
| 34 | Hikmatli MFY | 0,80 | 333,60 |
| 35 | Shirin MFY | 1,00 | 417,00 |
| 36 | Sholikor MFY | 1,00 | 417,00 |
| 37 | Elobod MFY | 0,90 | 375,30 |
| 38 | Yangiobod MFY | 0,90 | 375,30 |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
7-ilova

**Sirdaryo tumani bo'yicha belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari**

| № | Tuman nomi | **Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari uchun** | | | | **Sanoat korxonalari uchun** | | | | **Alkogolsiz va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (pivo va vinodan tashqari)** | | **Avtotransport vositalarini yuvish uchun** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yer usti | | Yer osti | | Yer usti | | Yer osti | | | | | |
| | | kofisient | 2025-yil stavka | kofisient | 2025-yil stavka | kofisient | 2025-yil stavka | kofisient | 2025-yil stavka | kofisient | 2025-yil stavka | kofisient | 2025-yil stavka |
| 1 | Sirdaryo tuman | 1,5 | 1 050,0 | 1,5 | 1 275,0 | 1,5 | 1 050,0 | 1,5 | 1 275,0 | 1,5 | 57 000 | 1,5 | 22 500 |

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-04-021-9-128-K/24 -son qaroriga
8-ilova

**Sirdaryo tumanida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalar**

**so'mda**

| T/r | Hududlar | qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi | | G'isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | koeffisient | Mutloq qiymat | koeffisient | Mutloq qiymat |
| 1 | Sirdaryo tuman | 1,3 | 6,500 | 1,3 | 6,006 |